

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrası
Ochiq dars tahlili

BAYONNOMASI

Qatnashdilar: PhD, B. Sodiqova, PhD, M. Isroilova, N.Shomurodova,

Fan: Tarjima nazariyasi va amaliyoti

Mavzu: Tarjimaning leksik muammolari

Guruh: 412-XT 2-OT-2023

O'qituvchi: G.Xolmurotova

Sana: 12.11.2025

Darsning maqsadi: Talabalarga tajimada uchraydigan leksik muammolarni keng va chuqur tushuntirish, ularni qanday bartaraf etsih yo'llarini o'rgatish. Talabalarda tarjima jarayonida kreativ fikrlash, nutq ohangi va madaniy kontekstni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

O'qituvchi mavzuni e'lon qildi, darsning maqsadi va vazifalarini tushuntirdi. Talabalar bilan "Tarjimaning leksik muammolari" mavzusida qisqa suhbat o'tkazildi. Tarjima jarayonida ayniqsa sinonimlardan keng foydalanish, kontekstdan umumiy ma'noni chiqarish yo'llari ham keng tushuntirib berildi.

Talabalar 3 guruhga bo'lindi. Har bir guruhga ingliz tilida 3xil matn parchasi berildi. Guruhlar matnni sinonimlardan foydalanib leksik jihatdan to'g'ri tarjima qilishga hrakat qilishdi. O'qituvchi va talabalar har bir guruh ishini tahlil qilib, afzallik va kamchiliklarni muhokama qildilar.

Darsning yakuniy qismida eng yaxshi tarjima namunasi e'lon qilindi. Talabalarning fikrlari tinglandi: "Bugungi mashg'ulot sizga nimani o'rgatdi?" O'qituvchi darsni umumlashtirdi: tarjima bu shunchaki bir so'zni boshqa tilga tarjima qilish emas balki, madaniy va semantik ko'prik yaratish jarayoni ekanini ta'kidladi. Ochiq dars davomida talabalar tarjima jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdi. Amaliy mashg'ulotlar ularning tarjima ko'nikmalarini rivojlantirdi, ijodiy yondashuvni kuchaytirdi va madaniy kontekstga e'tibor

berishni o'rgatdi. Dars interfaol tarzda, yuqori faollik va qiziqish bilan o'tdi. Ushbu ochiq dars orqali talabalar tarjima sohasida nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlashdi. Ular tarjimada leksik muammolarni qanday hal qilishni, sinonimlardan o'rinli foydalanishni o'rganishdi.

Kafedra qarori:

- 1.O'qituvchi: Xolmurotova Gulnora Tarjima nazariyasi va amaliyoti fanidan "Tarjimaning leksik muammolari" mavzusidagi ochiq dars tahlili ma'qullansin.
2. O'qituvchi G. Xolmurotovaning o'tkazgan ochiq darsi talabga javob beradi va yuqori darajada tashkil etildi, deb hisoblansin.

Kafedra mudiri:

D.Tog'aymurodov

Kotiba:

I. Choriyeva

